GENERATIV SUN'IY INTELLEKT ANTROPOMORFIZATSIYASINING IJTIMOIY BOG'LANGANLIK VA PSIXOLOGIK FAROVONLIKKA TA'SIRINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Sh.Q.Sattarova[1]

1. Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markaz "Shaxs va shaxslararo munosabatlar" labaratoriyasi bo'limi mudiri, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mas'ul muallif: Sattarova Shaxnozaxon Qo'chqarovna, Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markaz "Shaxs va shaxslararo munosabatlar" labaratoriyasi bo'limi mudiri, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

e-mail: academics.uzb@gmail.com

Received: 10 Noyabr 2026
Accepted: 15 Noyabr 2026
Published: 20 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Sattarova, S. Q. GENERATIV SUN'IY INTELLEKT ANTROPOMORFIZATSIYASINING IJTIMOIY BOG'LANGANLIK VA PSIXOLOGIK FAROVONLIKKA TA'SIRINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI / S. Q. Sattarova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 2. — B. 84–87.

Annotatsiya. Mazkur maqolada generativ sun'iy intellekt tizimlarini insonga xos xususiyatlar, niyat, his-tuyg'u, empatiya va ijtimoiy agentlikka ega sub'ekt sifatida qabul qilish jarayoni – antropomorfizatsiyaning ijtimoiy bog'langanlik va psixologik farovonlikka ta'sirining psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Raqamli muhitda inson va sun'iy intellekt o'rtasidagi muloqot tobora interaktiv va ijtimoiy xususiyat kasb etayotgani natijasida antropomorfizatsiya shaxsning AI tizimiga nisbatan ijtimoiy munosabatini shakllantiruvchi muhim psixologik omilga aylanmoqda. Maqolada antropomorfizatsiyaning ijtimoiy bog'langanlik hissi, emosional qo'llab-quvvatlash, o'zini ifodalash, psixologik refleksiya va sub'ektiv farovonlik bilan bog'liq ehtimoliy mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, ushbu ta'sirning ikki tomonlama xususiyati – bir tomondan ijtimoiy ehtiyojlarni qo'llab-quvvatlashi, ikkinchi tomondan esa real insonlararo munosabatlarni qisqartirish xavfini keltirib chiqarishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Generativ sun'iy intellekt, antropomorfizatsiya, ijtimoiy bog'langanlik, psixologik farovonlik, emosional yaqinlik, ijtimoiy agentlik, raqamli psixologiya, inson – AI munosabatlari, refleksiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ВЛИЯНИЯ АНТРОПОМОРФИЗАЦИИ ГЕНЕРАТИВНОГО ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА СОЦИАЛЬНУЮ СВЯЗАННОСТЬ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ

Аннотация. В данной статье анализируются психологические механизмы влияния антропоморфизации - процесса восприятия систем генеративного искусственного интеллекта как субъектов, обладающих человеческими характеристиками, намерениями, эмоциями, эмпатией и социальной агентностью, - на социальную связанность и психологическое благополучие личности. В условиях цифровой среды взаимодействие между человеком и искусственным интеллектом приобретает всё более интерактивный и социальный характер, вследствие чего антропоморфизация становится важным психологическим фактором, формирующим социальное отношение личности к системам искусственного интеллекта. В статье рассматриваются потенциальные механизмы взаимосвязи антропоморфизации с чувством социальной связанности, эмоциональной поддержкой, самовыражением, психологической рефлексией и субъективным благополучием. Кроме того, анализируется двойственный характер данного воздействия: с одной стороны, антропоморфизация может способствовать удовлетворению социальных потребностей личности, а с другой - создавать риск сокращения реальных межличностных взаимодействий.

Ключевые слова: генеративный искусственный интеллект, антропоморфизация, социальная связанность, психологическое благополучие, эмоциональная близость, социальная агентность, цифровая психология, отношения человека и искусственного интеллекта, рефлексия, социальная поддержка.

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF THE IMPACT OF GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE ANTHROPOMORPHIZATION ON SOCIAL CONNECTEDNESS AND PSYCHOLOGICAL WELL-BEING

Abstract. This article analyzes the psychological mechanisms through which anthropomorphism-the process of perceiving generative artificial intelligence systems as entities possessing human characteristics, intentions, emotions, empathy, and social agency-influences social connectedness and psychological well-being. In the digital environment, interactions between humans and artificial intelligence are becoming increasingly interactive and social in nature. Consequently, anthropomorphism is emerging as an important psychological factor shaping individuals' social perceptions and attitudes toward artificial intelligence systems. The article explores the potential mechanisms linking anthropomorphism to a sense of social connectedness, emotional support, self-expression, psychological reflection, and subjective well-being. Furthermore, it examines the dual nature of this influence: on the one hand, anthropomorphism may contribute to

the fulfillment of individuals' social needs; on the other hand, it may create a risk of reduced real-life interpersonal interactions.

Keywords: generative artificial intelligence, anthropomorphism, social connectedness, psychological well-being, emotional closeness, social agency, digital psychology, human–AI relationships, reflection, social support.

Kirish. Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi insonning axborot olish, qaror qabul qilish, ta'lim olish va muloqot qilish usullarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Ayniqsa, generativ sun'iy intellekt tizimlarining tabiiy tilda muloqot qila olishi, foydalanuvchi savollariga kontekstual javob berishi, emosional mazmundagi matnlarni yaratishi individual muloqot uslubini shakllantirishi inson-texnologiya munosabatlariga yangi psixologik mazmun olib kirmoqda. An'anaviy kompyuter-inson o'zaro ta'sirida texnologiya asosan instrument sifatida qabul qilingan bo'la, SI bilan muloqotda foydalanuvchi uni ma'lum darajada ijtimoiy sub'ekt sifatida qabul qilishi mumkin. SI tizimiga ism berish, unga shaxsiy xususiyatlar nisbat berish, uni "tushunadigan", "qo'llab-quvvatlaydigan", "maslahat beradigan" sub'ekt sifatida idrok etish antropomorfizatsiya jarayonining namoyon bo'lish shakllaridir. Antropomorfizatsiya insonning insonga xos xususiyatlarni inson bo'lmagan ob'ektlarga nisbat berish tendensiyasi sifatida izohlanadi. Zamonaviy raqamli muhitda ushbu fenomen robotlar, virtual assistentlar, chatbotlar va generativ SI tizimlariga nisbatan ham kuzatilmoqda. Shu sababli antropomorfizatsiyani faqat texnologik qabul qilish fenomeni sifatida emas, balki insonning kognitiv va ijtimoiy jarayonlariga ta'sir qiluvchi psixologik jarayon sifatida o'rganish zarur. Ayniqsa SI bilan muntazam muloqot qilish insonning o'zini qanday his qilishi, ijtimoiy aloqalarni qanday baholashi, jamoaga mansublik tuyg'usi va farovonlik holatiga qanday ta'sir ko'rsatishi masalasi dolzarb va ilmiy muammolardan biridir.

Asosiy qism. Antropomorfizatsiya inson tafakkurining tabiiy ijtimoiy – kognitiv mexanizmlaridan biridir. Inson atrof – muhitdagi hodisalarni tushunishida ko'pincha o'zida mavjud bo'lgan ijtimoiy tajriba va insoniy kategoriyalardan foydalanadi. Shu bois texnologiya inson tilida gaplashsa, savollarga insonga xos javob bersa, foydalanuvchi hissiyotlarini ifodalovchi signallarga javob qaytarsa yoki muloqot davomiyligini saqlasa, foydalanuvchi uni ma'lum darajada "ijtimoiy muloqotchi" sifatida qabul qilishi mumkin. Amerikalik psixolog va olim A.Waytz o'z tadqiqotlarida "Insonning boshqa odamlar, sun'iy intellekt va insonga o'hshash xususiyatlarga ega obektlar haqida qanday fikrlashni o'rgangan" izlanuvchi sifatida u asosiy ilmiy yo'nalishlarida "Antropomorfizm – insonga xos xususiyatlarni sun'iy intellekt, robotlar va boshqa inson bo'lmagan obektlarga nisbat berish" deb tushuntiradi. Amerikalik ijtimoiy psixolog, inson tafakkuri, ijtimoiy idrok va antropomorfizm bo'yicha taniqli olimlardan biri N.Epley tomonidan taklif etilgan yondashuvda "Antropomorfizatsiyaga insonning agentlikni idrok etish ehtiyoji, ijtimoiy bog'lanish ehtiyoji va ob'ektning insonga o'hshash belgilari ta'sir qiladi" deb ta'kidlangan. Yana bir Amerikalik ijtimoiy psixolog va neyroolim John T.Cacioppo "Insonning ijtimoiy munosabatlari, yolg'izlik, ijtimoiy idrok va miya faoliyati o'rtasidagi bog'liqlik"ni o'rgangan. Ushbu uch olim tomonidan ishlab chiqilgan uch omilli nazariyada "Antropomorfizatsiya insoniy bilimlarning faollashuvi, hodisalarni tushuntirish va nazorat qilishga bo'lgan ehtiyoj hamda ijtimoiy aloqaga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liqligini" ko'rsatib o'tgan. Mazkur yondashuvlar generativ SI "Inson tilidan foydalanadi, muloqot kontekstini saqlaydi, savollarga moslashtirilgan javoblar beradi va ba'zi hollarda empatik tildan foydalanadi" degan nazaryalarni ham ilgari suradi. Natijada foydalanuvchida SI ning "ijtimoiy agent" ekanligi haqidagi sub'ektiv tasavvur kuchayishi mumkin. Shu nuqtai nazardan antropomorfizatsiyaning ta'siri bevosita emas, balki bir qator psixologik vositachi mexanizmlar orqali amalga oshishi mumkin. Ularga ijtimoiy agentlikni idrok etish, emosional yaqinlik, ishonch, psixologik farovonlik, o'zini ochish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni his qilish kabi jarayonlarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy bog'langanlik shaxsning boshqa insonlar bilan emosional va ijtimoiy jihatdan bog'langanligini, guruhga tegishliligini va o'zaro munosabatlarda o'zini qabul qilingan sub'ekt sifatida his qilishini anglatadi. Insonning "boshqalarga kerakman", "meni tushunadilar", "men jamoaning bir qismiman" degan subektiv hislari ijtimoiy bog'langanlikning muhim psixologik komponentlaridir. Ushbu ehtiyoj qondirilmagan hollarda yolg'izlik, ijtimoiy izolyatsiya va psixologik noqulaylik kuchayishi mumkin.

Generativ SI bilan muloqot mazkur ehtiyojni to'liq insonlararo munosabat o'rnida qondirishi haqida xulosa qilishga hali erta deb bilaman. Biroq SI bilan doimiy interaktiv muloqot ayrim foydalanuvchilarda "mening fikrlarimga javob beruvchi va meni tinglovchi subekt mavjud" degan subektiv tajribani shakllantirish mumkin. Shuning uchun ijtimoiy bog'langanlikning ikki darajasini farqlash muhim: subektiv ijtimoiy bog'langanlik va ob'ektiv insonlararo integrasiya. SI muloqoti birinchi ko'rsatkichni ma'lum darajada kuchaytirishi mumkin, ammo bu avtomatik ravishda real insonlararo munosabatlar soni va sifatining oshishini anglatmaydi. Antropomorfizatsiyaning asosiy psixologik mexanizmlari;

1. Ijtimoiy agentlikni idrok etish mexanizmi. Antropomorfizatsiyaning birinchi mexanizmi SI ni oddiy texnologik vosita emas, balki niyat va maqsadga ega ijtimoiy agent sifatida qabul qilish bilan bog'liq jarayondir. Foydalanuvchi SI javoblarida insonga hos til, muloqot uslubi va emosional ifodalarni kuzatganida unga nisbatan ijtimoiy atribusiyalar shakllanishi mumkin. Natijada texnologiya bilan muloqot instrumental emas, balki ijtimoiy xususiyat kasb etadi.

2.Emosional yaqinlik mexanizmi. Inson doimiy ravishda shaxsiy fikrlari, muammolari va kechinmalarini SI bilan muhikama qilganda emosional yaqinlik hissi paydo bo'lishi ehtimoli mavjud. Bu jarayonda SI ning hukm qilmaydigan, tezkor va doimiy muloqot imkoniyati muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Ayniqsa, shaxsiy mavzularni boshqa insonlarga ochishda qiynaladigan shaxslar uchun SI bilan muloqot o'z fikrlarini erkin ifodalash vositasiga aylanishi mumkin.

3.O'zini ochish va psixologik proyeksiya mexanizmi. Inson muloqot jarayonida o'z fikrlari, qadriyatlari va emosional holatini suhbatdoshiga proyeksiya qilishi mumkin. SI bilan muloqotda ham shunday jarayon kuzatilishi ehtimoldan holi emas. Foydalanuvchi SI ga o'zining ichki kechinmalarini bayon qilar ekan, javoblarni o'z shaxsiy tajribasi nuqtai nazaridan

talqin qiladi. Bu jarayon refleksiv faollikni kuchaytirishi va shaxsning o'zini anglash darajasiga ta'sir qilishi mumkin.

4.Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni idrok etish mexanizmi. Generativ SI tomonidan berilgan konstruktiv, empatik va qo'llab-quvvatlovchi javoblar foydalanuvchida subektiv ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hissini paydo qilishi mumkin. Biroq bunday qo'llab-quvvatlashni real insonning emosional qo'llab-quvvatlashi bilan bir xil deb baholash mumkin emas. SI ning "qo'llab-quvvatlashi" texnologik muloqot natijasi bo'lib, uning psixologik ta'siri foydalanuvchining talqini va kontekstiga bog'liq.

5.Refleksiv mexanizm. Generativ SI bilan muloqot shaxsni o'z fikrlarini qayta ko'rib chiqishga, muqobil nuqtai nazarlarni solishtirishga va o'z hatti-harakatlarini tahlil qilishga undashi mumkin. Shu manoda SI tashqi "refleksiv oyna" funksiyasini bajarishi mumkin. Inson o'z fikrini matn shaklida ifodalar ekan, uni qayta o'qish va SIning javoblari bilan taqqoslash orqali o'z pozitsiyasi haqida qo'shimcha anglashga erishishi mumkin.

6.Psixologik farovonlik bilan bog'liq mexanizmlar. Psixologik farovonlik insonning ijobiy emosional holati, hayot mazmunini his qilishi, o'zini qabul qilishi, ijobiy munosabatlar va shaxsiy rivojlanish kabi komponentlarni qamrab oladi. Generativ SI antropomorfizatsiyasi farovonlikka bir nechta yo'nalishda ta'sir qilishi mumkin. Birinchidan, SI bilan muloqot sressni verballashtirish va emosional holatni qayta ishlash imkonini berishi mumkin. Ikkinchidan, SI bilan muloqot shaxsga qarorlarini tahlil qilish va muammoni turli nuqtai-nazardan ko'rib chiqish imkoniyatini berishi mumkin. Uchinchidan, shaxsda "mening fikrim eshitilyapti" degan subektiv hisning paydo bo'lishi vaqtinchalik psixologik yengillik bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq ushbu ta'sirning yo'nalishi bir hil emas. Agar SI bilan muloqot real insonlararo munosabatlari qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida ishlatilsa, u ijtimoiy faollikka qo'shimcha resurs berishi mumkin. Aksincha, agar shaxs real munosabatlar o'rniga faqat SI bilan muloqot qilishni tanlasa, ijtimoiy izolyasiya bilan bog'liq xavflar paydo bo'lishi mumkin.

Mazkur tahlil asosida quyidagi konseptual modelni taklif qilamiz: Generativ SIning insonga o'hshashligi va muloqot xususiyatlari<Antropomorfizatsiya< Ijtimoiy agentlikni idrok etish<Ishonch va emosional yaqinlik<O'zini ochish va subyektiv ijtimoiy qo'llab-quvvatlash<Ijtimoiy bog'langanlik hissi<Refleksiya va psixologik resurslarni faollashtirish<Psixologik farovonlik. Ushbu zanjirda shaxsiy omillar – yolg'izlik darajasi, ijtimoiy ehtiyoj, raqamli savodhonlik, SIdan fiydalanish tajribasi va shaxslararo munosabatlarning sifati-moderator vazifasini bajarishi mumkin.

Antropomorfizatsiyaning ijobiy va ehtimoliy xavfli jihatlari. Generativ SI antropomorfizatsiyasining ijobiy tomoni uning insonga qulay psixologik interfeys yaratishi bilan bog'liq. Insonga xos muloqot uslubi texnologiyadan foydalanishni osonlashtirishi, fikrlarni ifodalashni rag'batlantirishi va refleksiv jarayonlarni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Biroq antropomorfizatsiya SIning haqiqiy psixologik yoki emosional subekt ekanligi haqida noto'g'ri tasavvur paydo bo'lishiga ham olib kelishi mumkin. Bunday holatda inson texnologiyaga haddan tashqari ishonch bildirishi yoki real insonlararo munosabatlarni kamaytirishi ehtimoli mavjud. Shu sababli SIdan psixologik maqsadlarda foydalanishda "texnologik qo'llab-quvvatlash" va "insonlararo qo'llab-quvvatlash" o'rtasidagi chegarani saqlash muhimdir.

Ilmiy muhokama. Mazkur nazariy tahlil generative SI antropomorfizatsiyasining oddiy interfeys xususiyati emas, balki insonning ijtimoiy ehtiyojlari, kognitiv atribusiyalari va emosional jarayonlari bilan bog'liq murakkab psixologik fenomen sifatida ko'rish imkonini beradi. Eng muhim nazariy xulosa shundan iboratki, antropomorfizatsiyaning psixologik ta'siri bevosita emas. U ijtimoiy agentlikni idrok etish, emosional yaqinlik, ishonch, o'zini ochish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va refleksiya kabi vositachi mexanizmlar orqali shakllanishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur ta'sir foydalanuvchining individual psixologik xususiyatlari va ijtimoiy muhitiga bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, ijtimoiy aloqalari yahshi rivojlangan shaxs uchun SI muloqoti qo'shimcha kognitiv-refleksiv resurs bo'lsa, ijtimoiy izolyasiya yuqori bo'lgan shaxsda SI bilan muloqot real munosabatlarning o'rnini bosuvchi vositaga aylanish xavfini keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa. Generativ SI antropomorfizatsiyasi inson-SI munosabatlarining psixologik tabiatini tushunishda muhim ilmiuy yo'nalish hisoblanadi. Ushbu fenomen orqali inson texnologik obyetga insonga hos agentlik, niyat, emosional xususiyat va ijtimoiy ahamiyat yuklashi mumkin. Antropomorfizatsiyaning ijtimoiy bog'langanlik va psixologik farovonlikka ta'siri, avvalo, ijtimoiy agentlikni idrok etish, emosional yaqinlik, ishonch, o'zini ochish, subyektiv ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va refleksiya mexanizmlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Taklif etilayotgan knseptual model "antropomorfizatsiya< ijtimoiy agentlik< emosional yaqinlik<ijtimoiy bog'langanlik< refleksiya< psixologik farovonlik" ketma-ketligini asosiy psixologik mexanizm sifatida belgilaydi. Kelgusi empirik tadqiqotlarda ushbu modelni tekshirish uchun antropomorfizatsiya darajasi, SIga nisbatan ijtimoiy agentlikni idrok etish, inson –SI emosional yaqinligi, ijtimoiy bog'langanlik, yolg'izlik, psixologik farovonlik va SIdan foydalanish intensivligi o'rtasidagi munosabatlarni kompleks o'rganish maqsadga muvofiq. Bunday tadqiqqotlar generative SIning inson psixologik hayotidagi o'rnini texnologik emas, balki ijtimoiy-psixologik nuqtai-nazardan tushunishga va inson-SI munosabatlarining xavfsiz, inson manfaatlariga yo'naltirilgan modellarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Epley, N., Waytz, A., & Cacioppo, J. T. (2007). On seeing human: A three-factor theory of anthropomorphism. Psychological Review, 114(4), 864–886.

[2] Waytz, A., Cacioppo, J., & Epley, N. (2010). Who sees human? The stability and importance of individual differences in anthropomorphism. Perspectives on Psychological Science, 5(3), 219–232.

[3] Nass, C., & Moon, Y. (2000). Machines and mindlessness: Social responses to computers. Journal of Social Issues, 56(1), 81–103.

[4] Reeves, B., & Nass, C. (1996). The Media Equation: How People Treat Computers, Television, and New Media Like Real People and Places. Cambridge University Press.

[5] Baumeister, R. F., & Leary, M. R. (1995). The need to belong: Desire for interpersonal attachments as a fundamental human motivation. Psychological Bulletin, 117(3), 497–529.

[6] Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. American Psychologist, 55(1), 68–78.

[7] Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2008). Hedonia, eudaimonia, and well-being: An introduction. Journal of Happiness Studies, 9, 1–11.

[8] Diener, E., Suh, E. M., Lucas, R. E., & Smith, H. L. (1999). Subjective well-being: Three decades of progress. Psychological Bulletin, 125(2), 276–302.

[9] Seligman, M. E. P. (2011). Flourish: A Visionary New Understanding of Happiness and Well-being. Free Press.

[10] Turkle, S. (2011). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. Basic Books.

[11] Fiske, S. T. (1992). Thinking is for doing: Portraits of social cognition. Journal of Personality and Social Psychology, 63(6), 877–889.

[12] Gambino, A., Fox, J., & Ratan, R. (2020). Building a stronger CASA: Extending the computers are social actors paradigm. Human-Machine Communication, 1, 5–25.